

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03-RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAXIMOV XURMAT NURMATOVICH

**SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARNI GAT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA
AGROKIMYOVIY KO‘RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH VA
O‘G‘ITLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARINI ISHLAB
CHIQISH ILMIY ASOSLARI
(Xorazm viloyati Shovot tumani misolida)**

06.01.04-Agrokimyo

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Raximov Xurmat Nurmatovich

Sug‘oriladigan tuproqlarni GAT texnologiyalari asosida agrokimyoviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va o‘g‘itlardan samarali foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish ilmiy asoslari (Xorazm viloyati Shovot tumani misolida)..... 3

Рахимов Хурмат Нурматович

Анализ агрохимических показателей орошаемых почв на основе ГИС-технологий и разработка научных основ эффективных способов применения удобрений (на примере Шаватского района Хорезмской области)..... 21

Rakhimov Khurmat Nurmatovich

Analysis of agrochemical indicators of irrigated soils based on GIS technologies and development of scientific foundations for effective methods of using fertilizers (In the example of Shavot district of Khorezm region)..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03-RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAXIMOV XURMAT NURMATOVICH

**SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARNI GAT TEXNOLOGIYALARI
ASOSIDA AGROKIMYOVIY KO‘RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH VA
O‘G‘ITLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARINI ISHLAB
CHIQUISH ILMIY ASOSLARI
(Xorazm viloyati Shovot tumani misolida)**

06.01.04-Agrokimyo

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Qx1236 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz.) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djalilova Gulnora Tulkunovna
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sanakulov Akmal Lapasovich
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Ismayilov Jumanazar Ismatovich
qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03-raqamli Ilmiy kengashning «18» 01. 2025 yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00, faks: (+99871) 260-38-60, e-mail: tuag_info@edu.uz) Toshkent davlat agrar universiteti bosh binosi, 1-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (552081) - raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil « ____ » _____ dagi № 9 raqamli reestr bayonnomasi).

N. B. Raupova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

G. S. Sodiqova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.n., dotsent

M. E. Saidova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo bo'yicha o'g'itlar samaradorligini oshirishning istiqbolli usullaridan biri bu tuproq unumdorligining dala ichidagi o'zgaruvchanligini hisobga olish bilan ularni tabaqalashtirilgan holda qo'llashdir. 2005–2016 yillar orasida aholining o'sishi 1 milliard odamni tashkil qilgan, 2030 yilga borib aholi soni 8,5 milliardga yetishi bashorat qilinmoqda, binobarin kishi boshiga ekin maydonlari qisqarib bormoqda va hozirda u 0,18 gektarni tashkil etsa, 2050 yilga kelib 0,15 gektarga, 2100 yilga kelib 0,12 gektarga kamayadi. Jahon statistikasi shuni ko'rsatadiki, so'nggi 40 yil ichida mineral o'g'itlarning ulushi oziq-ovqat ishlab chiqarishni 40% ga to'g'ri keladi¹. Xalqaro o'g'itlar assotsiatsiyasi IFA ning ma'lumotlariga ko'ra, global o'g'it iste'moli dunyo bo'yicha 2016 yilda 197,5 million tonnani tashkil qilib, 2023 yilda esa 199,5 million tonnaga yetgan². Shuning uchun o'g'itlardan samarali foydalanish, tabaqalashtirilgan holda qo'llash bilan birga tuproq unumdorligini oshirish, yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotini ekologik xavfsizligini ta'minlash, atrof-muhitga bo'layotgan salbiy ta'sirini minimallashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan, global navigatsiya tizimlaridan faol foydalanishga qaratilgan tadbirlarni ilmiy asoslangan holda tadbiq qilish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Dunyoda raqamlashtirish jarayoniga o'tish uchun raqamli agrokimyoviy xaritanomalar tuzishda makon-zamonga oid ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun geografik axborot tizimi imkoniyatlaridan foydalanib ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish usullari, kartografik usullar, shu bilan bir qator mobil ilovalar yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada qishloq xo'jaligini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri bu tuproqning xususiyatlari va ma'lum bir ekin maydoniga tabaqalashtirish yondashuviga asoslangan holda o'g'it qo'llash imkonini yaratadi. Shu munosabat bilan, tuproq unumdorligi ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda raqamli dehqonchilik tamoyillarini amalda qo'llash, ya'ni agrokimyo sohasida raqamlash jarayoniga o'tish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda qishloq xo'jaligi sohasini raqamlashtirish jarayoniga o'tkazish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda va shu borasida muayyan natijalarga erishilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi" tasdiqlangan bo'lib, unga muvofiq "Aqlli qishloq xo'jaligi" ni rivojlantirish davlat dasturini ishlab chiqish, qishloq xo'jaligi innovatsiyalarni joriy qilish sohasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning zamonaviy shakllarni joriy etish, birinchi navbatda "Aqlli qishloq xo'jaligi" konsepsiyasiga asoslanib, mavjud yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalariga qaratilgandir. Ushbu vazifani bajarishda qishloq xo'jaligi faoliyatini iloji boricha avtomatlashtirishga, qishloq xo'jaligi asosiy

¹ <https://www.fao.org/3/ca5253ru/CA5253RU.pdf>.

² <https://www.fertilizer.org/>

ekinlarining hosildorligini oshirishga va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasining moliyaviy ko'rsatkichlarini oshirishga, shuningdek, respublikaning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan innovatsion ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 yanvardagi 4996-sonli "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 10 iyuldagi PQ-277-sonli "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 17 dekabrda 794-sonli "O'zbekiston respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, shuningdek, sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Raqamli agrokimyoviy xizmatni tashkil qilish maqsadida tuproq unumdorligini tartibga solish, tuproq qoplami haydov qatlamidagi agrokimyoviy ko'rsatkichlardagi o'zgarishlarni kuzatish va bu o'zgarishlarning hosilning miqdori va sifatiga ta'siri, qishloq xo'jaligi ekinlari uchun tabaqalashtirilgan holda o'g'it me'yorlarini ishlab chiqish va hozirda qishloq xo'jaligida joriy qilinayotgan innovatsiyalardan geografik axborot tizimlari (GAT) ni agrokimyo sohasiga qo'llash, turli mobil ilovalar yaratishga qaratilgan keng qamrovli tadqiqot ishlari dunyo bo'ylab ko'pgina olimlar tomonidan olib borilmoqda, jumladan B.S.Blackmore, K.Golicz, P.Han, D.Dong, V.V.Lapa, A.N.Chashin, E.V.Smirnova, K.G. Giniyatullin, I.A.Sahabiev, respublikamizda esa A.J.Boirov, Sh.M.Bobomurodov, J.M.Qo'ziyev, Z.A.Baxodirov, J.M.Turdaliyev, M.Dauletmurodov va boshqa olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biroq, Xorazm viloyati Shovot tumani sug'oriladigan tuproqlarning agrokimyoviy ko'rsatkichlarini geografik axborot tizimlari asosida tahlil qilgan holda, o'g'itlardan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish maqsadida mobil ilova platformalarining yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rajalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Tuproqshunoslik kafedrasining tematik rejadagi "O'zbekiston tuproqlari genezisi, geografiyasi, evolyusiyasi, agromeliorativ xossalari, uni tiklash, saqlash unumdorligini oshirish yo'llari va muhofazalash" bosh ilmiy mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Xorazm viloyati Shovot tumanida tarqalgan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning agrokimyoviy ko'rsatkichlarini zamonaviy texnologiyalari asosida tahlil qilish hamda o'g'itlardan samarali foydalanishda "Agrokimyoviy taqsimotchi" mobil ilova platformasining yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

tuproqlarning gumus va ozuqa elementlar miqdorini o'g'itlardan differensiallangan holda foydalanish maqsadida asosiy agrokimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash;

tuproqlarni agrokimyoviy tahlil qilish maqsadida GPS navigatsiya tizimlaridan foydalangan holda olingan tuproq namunalarini joylashish koordinatalarini aniqlash, GAT yordamida tadqiqot ob'ekti dala konturlarini xaritalarini raqamlashtirish;

agrokimyoviy tahlil natijalarini GAT yordamida tuproqlarning gumus va boshqa ozuqa elementlari bilan ta'minlanishiga ko'ra raqamli elektron xaritanomalarini yaratish;

mobil ilova platformasi uchun to'plangan ma'lumotlar asosida o'zgartirish, yangi ma'lumotlar bilan to'ldirib borish, tahrirlash, so'rov va turli ko'rinishdagi hisobotlar olish imkoniyatlari mavjud ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish;

tadqiqot ob'ekti tuproqlarini agrokimyoviy tahlil natijasiga ko'ra g'o'za hosildorligini oshirishda o'g'itlarni maqbul qo'llash me'yorlari va nisbatlarini ishlab chiqish;

o'g'itlardan differensiallangan holda foydalanish maqsadida ma'lumotlarni tizimlashtirilgan holatda kiritish va nazorat qilish, axborotni yangilash, ishonchligi va samaradorligini oshirish imkonini beruvchi, qo'l mehnati xarajatlarini kamaytirish imkoniyatini beruvchi mobil ilova yaratish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Xorazm viloyati Shovot tumanida tarqalgan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlari, g'o'zaning "Xorazm-127" navi, mineral va organik o'g'itlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti tuproqlarning agrokimyoviy xossalari, raqamli agrokimyoviy xaritanomalar, o'g'it me'yorlari va nisbatlari, g'o'za navining o'sishi, mobil ilova hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tuproqning agrokimyoviy tahlillari umumqabul qilingan uslublar bo'yicha Ye.V.Arinishkinaning "Руководство по химическому анализу почв" qo'llanmasi asosida bajarilgan. Dala tajribalari "Dala tajribalarini o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar", "Методы полевых опытов с хлопчатником в условиях орошения", "Sug'oriladigan tuproqlarda mineral va organik o'g'itlarni tabaqalashtirib qo'llash bo'yicha tavsiyalar" asosida bajarilgan. Tadqiqot natijalarining statistik tahlili EViews 9 dasturi Jarka-Bera mezoni yordamida taxlil qilingan. Raqamli agrokimyoviy xaritanomalar ArcGIS 10.8.1 dasturiy ta'minoti, mobil ilova Flutter dasturi Dart tili yordamida yaratilgan. Tuzilgan raqamli agrokimyoviy xaritanomalar asosida mineral o'g'itlar me'yorini belgilash ishlari va O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining "Sug'oriladigan yerlarda tuproq agrokimyoviy tadqiqot ishlarini bajarish va agrokimyoviy xaritanomalar tuzish hamda mineral o'g'itlarga bo'lgan ilmiy talabni ishlab chiqish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar" asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

tadqiqot ob'ekti sug'oriladigan tuproqlarning agrokimyoviy ko'rsatkichlarini ArcGIS dasturining imkoniyatlaridan foydalanilgan holda makon-zamonda o'zgarish tendensiyalarini aniqlash imkoniyatlari ochib berilgan;

fermer xo'jaligi ekin maydonlarida joylashtirilgan ekin turlari va rejalashtirilgan

hosildorlik bo'yicha mineral o'g'itlarning yillik me'yorlari va har bir o'g'it qo'llanishi bo'yicha ma'lumotlar jamlangan "Agrokimyoviy me'yor" ma'lumotlar bazasini yaratishda Microsoft Access dasturining ".accdb" fayl tipining imkoniyatlari asoslangan;

o'g'itlardan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish maqsadida "Agrokimyoviy taqsimotchi" mobil ilova platformasini yaratishda Flutter dasturi Dart tilining imkoniyatlari asoslangan;

o'g'itlardan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish jarayonida: tuproqlarda gumus va ozuqa moddalarini aniqlash bo'yicha ma'lumotlar to'plash > ArcGIS dasturida agrokimyoviy xaritanomalar yaratish > Microsoft Access dasturi

.accdb fayl tipida ma'lumotlar bazasi yaratish > Flutter dasturi Dart tilida mobil ilova platformasi (o'g'itlarni tabaqalashtirilgan holda qo'llash maqsadida) yaratish ketma-ketligi mexanizmi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ArcGIS dasturida tadqiqot ob'ekti tuproqlarining gumus va boshqa ozuqa elementlari bilan ta'minlanishiga ko'ra raqamli xaritanomalar yaratilgan;

o'g'itlarni tabaqalashtirilgan holda qo'llash maqsadida ma'lumotlarni yagona kiritish va nazorat qilish, axborotni yangilash imkoniyatini ta'minlovchi "Agrokimyoviy me'yor" ma'lumotlar bazasi yaratilgan;

o'g'itlardan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish maqsadida "Agrokimyoviy taqsimotchi" mobil ilova platformasi yaratilgan va ishga tushirilgan.

tadqiqot hududida tarqalgan sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning gumus va ozuqa elementlar miqdorini inobatga olgan holda g'o'zaning "Xorazm-127" navi uchun maqbul og'it qo'llash me'yorlari va nisbatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi umumqabul qilingan tadqiqot usullari, hamda olingan nazariy natijalarni amaliy ma'lumotlar bilan tasdiqlanganligi, tajriba natijalarini ushbu tadqiqot yo'nalishida boshqa mualliflarning natijalari bilan taqqoslanganligi va tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, ma'lumotlarni saqlash, tezkor yangilash, qidirish va taqdim etish jarayonlarini amalga oshirishda yuqori imkoniyatlarga ega bo'lgan, tadqiqot hududi sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining agrokimyoviy holati bo'yicha ma'lumotlar saqlagan "Agrokimyoviy me'yor" ma'lumotlar bazasi va "Agrokimyoviy taqsimotchi" mobil ilovasi qishloq xo'jaligi ekinlarini mineral o'g'itlar bilan oziqlantirishda o'g'itlardan samarali foydalanish, ularni agrokimyoviy me'yorlar asosida kiritish yo'li bilan mo'l va sifatli hosil olish, shunidek tuproqlarning agrokimyoviy monitoring o'tkazish imkoniyatini yaratish jarayonida ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, yaratilgan raqamli agrokimyoviy xaritanomalar qishloq xo'jaligi yerlarining agrokimyoviy holatini aniqlashda mutaxassislarning sarflaydigan vaqt va qo'l mehnatini kamaytiradi, shuningdek, ishlab chiqilgan mineral o'g'it me'yor va nisbatlari tayanch massivida amalda qo'llanilib kelinayotgan me'yorlarga solishtirganda qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqoriroq hamda sifatli hosil olishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xorazm viloyati Shovot tumani sharoitida qishloq xo'jaligi yerlari tuproqlarining tuproq unumdorligini o'rganish va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'g'itlash bo'yicha tavsiyalar berish usulini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijasida:

GAT ning ArcGIS Desktop, 3D Analyst (Surface/Create TIN from Features), Surface/Interpolate Grid va Erdas dasturiy ta'minotlar imkoniyatlaridan foydalangan holda Xorazm viloyati Shovot tumani Guliston hududidagi 1827,7 gektar maydondagi tuproqlarning tarqalishi, ularning gumus, ozuqa elementlar bilan taminlanishi aks ettiruvchi 1:10000 masshtabdagi xaritanomalari yaratilgan va Shovot tumani qishloq xo'jaligi boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 19 iyul 05/34-05/3536-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, joriy etilgan xaritanomalar asosida sug'oriladigan allyuvial tuproq tarqalgan yerlarini chegaralarini bilish, o'g'itlar samaradorligini ta'minlash maqsadida tuproqlarda agrokimyoviy monitoring o'tkazish, hudud tuproqlarining unumdorligini, meliorativ holatini, barcha agrokimyoviy xossalari va rejalashtirilgan hosilni inobatga olgan holda o'g'itlarning maqbul me'yorlarini ishlab chiqishda foydalanishga xizmat qilgan.

Microsoft Access dasturida yaratilgan Shovot tumani Guliston hududi o'tloqi allyuvial tuproq sharoitida joylashgan fermer xo'jalik va boshqa qishloq xo'jalik korxonalarida ekin maydonlarida joylashtirilgan ekin turlari va rejadagi hosildorlik bo'yicha mineral o'g'itlarning yillik me'yorlari hamda har bir o'g'it qo'llanishi bo'yicha ilmiy asoslangan ko'rsatmalar keltirilgan "Agrokimyoviy me'yor" ma'lumotlar bazasi Xorazm viloyati Shovot tumani qishloq xo'jaligi boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 19 iyul 05/34-05/3536-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, joriy etilgan ma'lumotlar bazasi qishloq xo'jaligi ekinlarini mineral o'g'itlar bilan oziqlantirishda raqamlashtirilgan texnologiyalar asosida o'tkazish, ularni agrokimyoviy me'yorlar asosida kiritish mo'l va sifatli hosil yetishtirish, agrokimyoviy monitoring o'tkazish imkoniyatini berishga xizmat qilgan.

Flutter dasturi Dart tilidan foydalanilgan holda yaratilgan "Agrokimyoviy taqsimotchi" mobil ilovasi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi Respublika agrokimyoviy tahlil markazi Xorazm viloyati filialida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi Respublika agrokimyoviy tahlil markazining 2023 yil 21 sentabr 102-sonli ma'lumotnomasi). Natijada joriy etilgan mobil ilova tuproqlarning unumdorlik va agrokimyoviy ko'rsatkichlarini bilgan holda, ma'lum bir ekin maydoniga tabaqalashtirish yondashuvga asoslangan holda o'g'it qo'llash imkonini yaratishda xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish e'lon qilingan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 1 ta xorijiy va 4 ta

respublika jurnallarda chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan 2 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiy hajmi 119 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot ob‘ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Muammoni o‘rganilganlik bo‘yicha dunyo tajribasi (adabiyotlar sharhi)**” deb nomlangan birinchi bobida tadqiqotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda bobni ikki qismga bo‘lingan: “Zamonaviy yondashuvlar asosida agrokimyoviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan mobil ilovalarni yaratish” va “O‘g‘itlarni tuproq xossalariga va g‘o‘zani o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta‘siri”. Ushbu bobda zamonaviy texnologiyalar asosida tuproqlarning agrokimyoviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va o‘g‘itlardan samarali foydalanish yo‘llarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlarning nazariy tahlili keltirilgan. Adabiyotlar sharhining birinchi qismidan shunday xulosa qilish mumkinki, zamonaviy axborot texnologiya imkoniyatlaridan foydalangan holda tuproqlarni agrokimyoviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va o‘g‘itlardan samarali foydalanish maqsadida raqamlashgan tizimga o‘tish, mobil ilovalar yaratish bo‘yicha dunyoda ko‘p miqyosda ishlar qilingan, lekin O‘zbekistonda aynan agrokimyo soxasida ushbu yo‘nalish bo‘yicha ishlar ancha kam. Adabiyotlar sharhining ikkinchi qismidan esa shunday xulosaga kelish mumkinki, mineral o‘g‘itlar bilan birgalikda organik o‘g‘itlarni tabaqalashtirilgan holda qo‘llash tuproqlarning umudorlik ko‘rsatkichlariga ijobiy ta‘sir qilgan holda paxta sifati va hosildorligini oshiradi.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot ob‘ekti, tajriba tuzilmasi va tadqiqot o‘tkazish uslublari**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob‘ektining geologik va geomorfologik sharoiti, iqlim sharoiti, tuproq sharoiti va tajriba tuzilmasi va tadqiqot o‘tkazish uslublari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Tadqiqot ob‘ektining geologik tuzilishi mezozoy va kaynozoy erasi cho‘kindi qatlamlari komplekslaridan iborat. Amudaryo bo‘ylarida tarqalgan qumoq-gilli, ayrim hollarda, qumloq qatlami qum bilan aralashgan holatdagi allyuvial yotqiziqlardan shakllangan yuqori kompleks va juda mayda zarrachali loyqa-gilli, qumoq va gillarning mayda (kichik) qavatlari uchraydigan qumlardan va har xil zarrachali qumdan iborat allyuvial yotqiziqlardan shakllangan quyi kompleksdan tashkil topgan.

Tadqiqotlar davomida sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarda o‘sovchi g‘o‘za tizimida mineral o‘g‘itlar me‘yorlarini samaradorligini o‘rganish uchun turli

me'yorlarda o'g'it qo'llagan holda tajriba otkazilgan bolib, dala tajribalari quyidagi tuzulma bo'yicha amalga oshirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval


Dala tajriba tizimi (qo'llanilayotgan o'g'it me'yori va muddatlari)

2019 yilda												
№	Tajriba variantlari	O'g'itlarning yillik me'yorlari kg/ ga			Shudgorlash	Ekish bilan birga		3-4 xaqiqiy chin barg chiqarganda		Shonalashda	Gullashda	
		N	P	K	Go'ng t/ga)	P	K	N	P	N	N	K
1	Nazorat	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
2	N ₁₅₀ P ₁₅₀ K ₁₅₀ +25 t/ga go'ng	150	150	150	25	100	120	60	50	40	50	30
3	N ₂₀₀ P ₁₅₀ K ₁₀₀ +25 t/ga go'ng	200	150	100	25	100	75	125	50	20	55	25
4	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +25 t/ga go'ng	250	150	125	25	100	75	100	50	70	80	50
5	25 t/ga go'ng	-	-	-	25	-	-	-	-	-	-	-
2020-2021 yillarda												
1	Nazorat	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
2	N ₁₅₀ P ₁₅₀ K ₁₅₀	150	150	150	-	100	120	60	50	40	50	30
3	N ₂₀₀ P ₁₅₀ K ₁₀₀	200	150	100	-	100	75	125	50	20	55	25
4	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅	250	150	125	-	100	75	100	50	70	80	50
5	25 t/ga go'ng	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-


Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Mineral va organik o'g'itlarni tuproqlarni agrokimyoviy xossalariga va g'o'zani o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri”** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqot ob'ektining tuproq sharoiti, qo'llanilgan mineral va organik o'g'it me'yorlarini tuproqlarni agrokimyoviy xossalariga, tuproqdagi azot, fosfor va kaliy miqdorlarining o'zgarishiga ta'siri, o'simlik organlarida umumiy azot, fosfor va kaliy miqdorlari, qo'llanilgan o'g'it me'yorlarini g'o'zaning o'sishi, rivojlanishi va paxta hosiliga, g'o'zaning quruq massa to'plashiga ta'siri, paxtaning hosilini oshirish maqsadida har hil me'yordagi o'g'itlarni qo'llashning iqtisodiy samaradorligi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqot ob'ektida tajriba maydonidagi tuproqlar sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar hisoblanib, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar o'zlashtirilganlik davriga ko'ra eskidan sug'oriladigan, yangidan sug'oriladigan va yangi o'zlashtirilgan bo'linmalarga ajratiladi. Sug'oriladigan tuproqlarning shakllanishiga gidrogeologik sharoitlar qatori, sug'orish ham qatlamga ta'sir ko'rsatadi. O'g'itlarni qo'llash natijasida dastlabki holatiga nisbatan gumus miqdori 0-30 sm qatlamda - 0,107 %, 30-50 sm – 0,153 %, umumiy shakldagi azot, fosfor va kaliy ko'rsatgichlari biroz 0,01-0,02 % ortganligi kuzatilgan. Tuproqlardagi harakatchan shakldagi fosfor va kaliy miqdorlari 1,2-1,5 va 1,1-1,2 barovar ortganligini ko'rish mumkin.


Tadqiqotlar davomida qo'llanilgan o'g'it me'yorlarini tuproqdagi azot, fosfor va kaliy miqdorlarining o'zgarishiga ta'siri tajribaning 2021 yilida g'o'zani 3-4 chin barg chiqarganda, shonalashda, gullashda va amal davri oxirida tuproqdagi nitratli azot miqdori mutanosib ravishda 1-variant, ya'ni nazoratda 7,1; 8,2; 8,7; 6,9 mg/kg, 2-variantda 9,2; 10,8; 12,4; 9,0 mg/kg, 3-variantda 9,1; 11,5; 13,4; 9,3 mg/kg, 4-variantda 9,4; 11,1; 13,1; 9,1 mg/kg, 5-variantda esa 7,7; 8,7; 9,4; 7,1 mg/kg tashkil qilgani aniqlangan (1-3 rasmlarga qarang).



1-rasm. Mineral va organik o'g'itlar qo'llanilganda tuproqda nitratli azot miqdorlarining o'zgarishi, mg/kg, (2019-2021 yillar)



2-rasm. Mineral va organik o'g'itlar qo'llanilganda tuproqda harakatchan fosfor miqdorlarining o'zgarishi, mg/kg, (2019-2021 yillar)



3-rasm. Mineral va organik o'g'itlar qo'llanilganda tuproqda almashinuvchi kaliy miqdorlarining o'zgarishi, mg/kg, (2019-2021 yillar)

Mineral va organik o'g'itlar qo'llanilganda tuproqda harakatchan fosfor miqdorlarining o'zgarishi 1-variant, ya'ni nazoratda 18,3; 18,8; 21,3; 16,8 mg/kg, 2-variantda 20,6; 23,4; 26,1; 20,1 mg/kg, 3-variantda 20,5; 24,1; 27; 20,3 mg/kg, 4-variantda 21; 23,7; 26,8; 20,7 mg/kg, 5-variantda esa 19,1; 19,7; 22,9; 18,6 mg/kg tashkil qilgani aniqlangan. Mineral va organik o'g'itlar qo'llanilganda tuproqda almashinuvchi kaliy miqdorlarining o'zgarishi 1-variant, ya'ni o'g'itsiz variantda 190; 200; 210; 185 mg/kg, 2-variantda 218; 240; 250; 225 mg/kg, 3-variantda 215; 235; 242; 218 mg/kg, 4-variantda 210; 230; 235; 200 mg/kg, 5-variant faqat go'ng

qo'llanilgan variantda esa 195; 210; 215; 188 mg/kg tashkil qilgani aniqlangan. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, eng ijobiy natijalar 3-variantda $N_{200}P_{150}K_{100} + 25$ t/ga go'ng o'g'it me'yori bo'lganda kuzatilgan (1-3 rasmlarga qarang). O'simlik organlarida umumiy azot, fosfor va kaliy miqdorlari tahlil qilinganda tajribaning ikkinchi va uchinchi yili (2020-2021 yil) olib borilgan tajribalarning nazorat variantida go'za bargda azotning miqdori mutanosib ravishda bargda 1%; 0,97 %, poyada 0,41%; 0,40%, chanoqda 0,50%, paxtada 1,69%; 1,65 %, fosfor miqdori mutanosib ravishda bargda 0,20%; 0,18 %, poyada 0,31%; 0,29%, chanoqda 0,35%; 0,36 %, paxtada 1,72%, 1,70 %, kaliy miqdori mutanosib ravishda bargda 1,03%; 0,98 %, poyada 0,81%; 0,80%, chanoqda 1,98%, 1,96 %, paxtada 0,91%; 0,86% ekanligi aniqlangan. Tajribaning 2-variantida $N_{150}P_{150}K_{150} + 25$ t/ga go'ng qo'llanilganda g'o'zaning bargida azotning miqdori mutanosib ravishda 1,72%; 0,69 %, poyada 0,48 %, chanoqda 0,48%; 0,49 %, paxtada 0,93%, 0,94 %, fosfor miqdori mutanosib ravishda bargda 1,81%; 1,80 %, poyada 0,45%; 0,46%, chanoqda 0,48%; 0,49 %, paxtada 0,93%; 0,94 %, kaliy miqdori mutanosib ravishda bargda 1,91%; 1,85 %, poyada 1,84%; 1,80%, chanoqda 2,16%; 2,15 %, paxtada 1,10%; 1,05% miqdorda ekanligi aniqlangan. Tajribaning 3-variantida $N_{200}P_{150}K_{100} + 25$ t/ga go'ng qo'llanilganda g'o'zaning barg chiqarish davrida azotning miqdori mutanosib ravishda 2,05%; 2,0%, poyada 0,58%; 0,60 %, chanoqda 0,81%; 0,80 %, paxtada 2,22%; 2,25 %, fosfor miqdori mutanosib ravishda bargda 2,0%; 2,05 %, poyada 0,55%; 0,57%, chanoqda 0,68%; 0,99 %, paxtada 1,09%; 1,08 %, kaliy miqdori mutanosib ravishda bargda 2,06%; 2,04 %, poyada 1,90%; 1,89%, chanoqda 2,33%; 2,36, %, paxtada 1,12%; 1,15% miqdorda ekanligi aniqlangan. Tajribaning 4-variantida $N_{250}P_{175}K_{125} + 25$ t/ga go'ng qo'llanilganda g'o'zani rivojlanish davrlaridagi o'zgarishlarini tahlil qiladigan bo'lsak, g'o'zaning barg chiqarish davrida azotning miqdori mutanosib ravishda 1,81%; 1,79%, poyada 0,52%; 0,48 %, chanoqda 0,72%; 0,70 %, paxtada 2,18%; 2,14 %, fosfor miqdori mutanosib ravishda bargda 1,72%; 1,70 %, poyada 0,44%; 0,46%, chanoqda 0,57%, paxtada 0,98%; 0,97%, kaliy miqdori mutanosib ravishda bargda 1,95%; 1,90 %, poyada 1,79 %, chanoqda 2,22%; 2,20 %, paxtada 1,02%; 1,05% miqdorda ekanligi aniqlangan. Tajribaning 5-variantida, ya'ni faqat 25 t/ga go'ng qo'llanilgan variantida tajribaning 2 va 3-yillarida g'o'zaning gullash davrida olingan ma'lumotlarga ko'ra, bargida azotning miqdori mutanosib ravishda 1,25%; 1,26%, poyada 0,44%; 0,41 %, chanoqda 0,55%; 0,54 %, paxtada 1,90%; 1,89 %, fosfor miqdori mutanosib ravishda bargda 0,98%; 0,97 %, poyada 0,41%; 0,40%, chanoqda 0,41%; 0,39 %, paxtada 0,81%; 0,80 %, kaliy miqdori mutanosib ravishda bargda 1,32%; 1,27%, poyada 1,10%; 1,11 %, chanoqda 2,01%; 2,00%, paxtada 0,93%; 0,90% miqdorda ekanligi aniqlangan.

Qo'llanilgan o'g'it me'yorlarini g'o'zaning o'sishi ba rivojlanishiga, g'o'zaning quruq massa to'plashiga ta'siri o'rganilganda ham eng yahshi natijalar 3 variantda, yani o'g'it me'yori $N_{200}P_{150}K_{100}$ bo'lganda kuzatilgan.

Tadqiqotlar davomida qo'llanilgan o'g'itlar paxta hosildorligiga quyidagicha ta'sir qildi, ya'ni nazorat o'g'itsiz variantida o'rtacha hosildorlik esa 18,6 s/ga ni, tajribaning 2-variantida, $N_{150}P_{150}K_{150} + 25$ t/ga go'ng qo'llanilganda 32,9 s/ga ni, 3-variantda, $N_{200}P_{150}K_{100} + 25$ t/ga go'ng qo'llanilganda 34,8 s/ga ni, tajribaning 4-variantida, $N_{250}P_{175}K_{125} + 25$ t/ga go'ng qo'llanilganda 31,1 s/ga ni, tajribaning 5-

variantida faqat 25 t/ga go'ng qo'llanilganda esa 24,46 s/ga bo'lgani kuzatilgan (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Qo'llanilayotgan o'g'itlarni paxta hosiliga ta'siri

№	Tajriba variantlari	Yillar			O'rtacha paxta hosili, s/ga	Nazoratga nisbatan qo'shimcha paxta hosili, s/ga
		2019	2020	2021		
1	Nazorat (o'g'itsiz)	19,3	18,9	17,8	18,6	-
2	N ₁₅₀ P ₁₅₀ K ₁₅₀ +25 t/ga go'ng	32,4	33,8	32,6	32,9	14,3
3	N ₂₀₀ P ₁₅₀ K ₁₀₀ + 25 t/ga go'ng	34,2	36,1	34,0	34,8	16,2
4	N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅ +25 t/ga go'ng	30,1	32,2	31,1	31,1	12,5
5	25 t/ga go'ng	24,5	25,2	23,7	24,46	5,8

EKIF₀₅ = 1,06 0,35 0,34 s/ga

EKIF₀₅ = 3,73 2,18 0,49 %

Natijalardan ko'rinib turibdiki eng yuqori hosildorlik 3 variantda, ya'ni o'g'it me'yori N₂₀₀P₁₅₀K₁₀₀ +25 t/ga go'ng bo'lganda kuzatilgan va hosildorlik nazoratga nisbatan 16,2 s/ga yuqoriroq bo'lishi kuzatilgan. Shuni qayd etish lozimki, ushbu me'yor tadqiqotlar davomida yaratilgan "Agrokimyoviy taqsimotchi" mobil ilovada tavsiya etilayotgan o'g'it me'yorlaridan kelib chiqqan holda qo'llanilgan.

Mineral va organik o'g'itlarning yillik me'yori (kg/ga), o'rtacha hosil (kg/ga), paxta xarid narxi (sum/s), shartli yalpi daromad (sum /ga), jami harajatlar (sum /ga), shu jumladan qo'shimcha hosilni terish va tashish, mineral o'g'itlar, organik o'g'itlar, go'ng, shartli sof foyda (sum /ga) va shartli rentabellik (%) boyisha ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotlar davomida paxtaning hosilini oshirish maqsadida har xil me'yordagi o'g'itlarni qo'llashning iqtisodiy samaradorligini hisoblash ishlarining natijasiga ko'ra, shartli rentabellik ya'ni 1 variant nazoratda 37,87 %, tajribaning 2 variantida 63,53%, 3 variantida 71,54 %, tajribaning 4 variantida 69,93 %, 5 variantda esa 56,34% ni tashkil qilgan. Quyidagi natijalarga erishish uchun paxtaning hosilini inobatga olgan holda, 3 variant, ya'ni o'g'it me'yori N₂₀₀P₁₅₀K₁₀₀ + 25 t/ga go'ng qo'llanilganda 34,8 s/ga ko'rsatkich bilan yaxshi natijaga erishilgan. Tadqiqot ob'ektining tuproqlarida shu me'yor optimal hisoblanildi. Bunga tayanch ma'lumotlar sifatida "Agrokimyoviy taqsimotchi" mobil ilovasi tavsiya bergan o'g'it me'yorlarini olsak bo'ladi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Zamonaviy yondashuvlar asosida tuproqlarni agrokimyoviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish, ulardan o'g'itlarni samarali qo'llashda foydalanish**" deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda navigatsiya GPS tizimlaridan foydalangan holda tuproq uchastkalarining joylashish koordinatalarini aniqlash va dala konturlarini xaritalarini raqamlash, geografik axborot tizim (GAT) vositalari yordamida tuproqlarning gumus va boshqa ozuqa elementlari bilan ta'minlanishiga ko'ra raqamli xaritanoma modellarini yaratish,

“Agrokimyoviy taqsimotchi” mobil ilova platformasini uchun “Agrokimyoviy me’yor” ma’lumotlar bazasini ishlab chiqish, “Agrokimyoviy taqsimotchi” mobil ilova platformasini yaratish dasturi va tili, ilova platformasini prototipini yaratish, ilova platformasini ishlash mexanizmi to’g’risida ma’lumotlar berilgan.

Tadqiqotlar davomida navigatsiya GPS tizimlaridan foydalangan holda tuproq uchastkalarining joylashish koordinatalarini aniqlash va dala konturlarini xaritalarini raqamlash jarayonini bajarish uchun dala sharoitida kesma qo’yilgan joyning nuqta treki, ya’ni koordinatlari aniqlangan, ular atributiv ma’lumotlar bilan (tuproq tarkibidagi gumus, harakatchan forsfor, kaliy bo’yicha ma’lumotlar) to’ldirildi, ma’lumotlarni tahlil qilish va elektron vektor kartasiga konvertirlash uchun asoslar tayyorlandi. Tuproqlarni gumus va ozuqa elementlari bilan ta’minlanishning elektron xaritanoma modellarini shakllantirish uchun 200 dan ortiq tuproq namunalari olindi, tuproq namunasi olinish jarayonida o’g’it ishlatilmaydigan yoki o’g’it me’yori sof oziq element hisobida gektariga 45-60 kg gacha tavsiya qilingan maydonlardan olingan.


Keyingi bosqich geografik axborot tizim (GAT) vositalari yordamida tuproqlarning gumus va boshqa ozuqa elementlari bilan ta’minlanishiga ko’ra raqamli elektron xaritanomalarini yaratish bo’lib, ushbu jarayon bajarilishda quyidagi bir qator ishlar bajarildi: birlamchi materiallarni yig’ish (o’rganilayotgan ob’ektning qishloq xo’jaligi, tuproq va boshqa xaritalari) >> manba materiallardan foydalangan holda sheyp faylini yaratish >> raqamlangan konturlar va elementar maydonlarini ajratish >> tuproqlarni gumus va boshqa ozuqa elementlar bilan ta’minlanishiga ko’ra laboratoriya tahlillari natijalarini import qilish >> xarita legendasini tuzish va legendaga ko’ra, maydonlarni loyihalash va hisoblash. Tadqiqotlar davomida birlamchi material sifatida tadqiqot ob’ektining tuproq xaritasidan foydalanildi (4-rasmga qarang). Raqamli xaritanomalarni ishlab chiqishda asosiy vazifalardan biri tanlangan koordinatalar tizimida fazoviy ob’ektlarni joylashtirishdir. Buni amalga oshirish uchun kerakli ob’ektlarni joylashtirishingiz mumkin bo’lgan geo-ma’lumotnomaga ega bo’lgan asosiy xarita bo’lishi kerak. Buning asosi sifatida yuqori aniqlikdagi sun’iy yo’ldosh tasvirlari va an’anaviy xaritalarni ko’rish va yuklab olish uchun mo’ljallangan ixtisoslashtirilgan SAS. Planet dasturi yordamida yuklab olingan sun’iy yo’ldosh tasviri ishlatilgan (5-rasmga qarang). Raqamlashtirish ishining o’zi ArcGIS 10.8.1. dasturi yordamida amalga oshirildi. GAT ma’lumotlarini taqdim etish formati sifatida sheyp-fayl formati tanlangan.



4-rasm. Tadqiqot ob’ektining tuproq xaritanoma




5-rasm. Tadqiqot ob’ektining sun’iy yo’ldosh tasviri



6-rasm. Tadqiqot ob'ekti tuproqlarda gumus miqdorini aks ettiruvchi raqamli xaritanoma



7-rasm. Tadqiqot ob'ekti tuproqlarda fosfor miqdorini aks ettiruvchi raqamli xaritanoma



8-rasm. Tadqiqot ob'ekti tuproqlarda kaliy miqdorini aks ettiruvchi raqamli xaritanoma


